

**Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan
MA'LUMOT**

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari 13-17 fevral kunlari **Respublika Ixtisoslashtirilgan Ftiziatriya va Pulmonologiya, Pediatriya, Urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, Respublika teri-tanosil kasalliklari klinik shifoxonasi, Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli tibbiyot klinikasi shifoxonasi, Samarqand davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasi** hamda **Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida** imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **184 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash hamda tibbiy yordam sifati yuzasidan telemuloqatlar o'tkazdilar.

O'tkazilgan telemuloqatlar natijasida **24(13%) nafar** bemorlar shifokorlarning bemorlarga muomalasidan, o'z hisobidan dori-darmon va tekshiruvlar uchun ortiqcha sarf-harajat qilganligi, shifoxona sharoitidan qoniqmaganligi, shifokorlar xizmati uchun pul berganligi yuzasidan **o'z e'tirozlarini bildirgan**. Ushbu fuqarolardan **1(4,1%) nafari yozma murojaat** qilish uchun tashkilot manzilini olgan.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefoni(**99 353 93 54**)ga hafta mobaynida **219 ta** fuqarolardan murojaatlar bo'ldi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligidan kelgan **"sms"** xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og'zaki murojaatlari** bo'ldi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari hafta davomida **403 nafar** fuqarolar bilan telemuloqatlar o'tkazdilar.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga hafta mobaynida imtiyozga ega fuqarolardan ishonch telefoniga **4 ta og'zaki** hamda Jamg'arma manziliga **2 ta yozma murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Respublika ko'z kasalliklari klinik shifoxonasi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti klinikalarida imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan bemorlar davolanish sifati hamda o'z hisobidan dori vositalari sotib olayotganligi yuzasidan Jamg'armaning ishonch telefoniga **og'zaki murojaatlar** qilishdi. Ushbu murojaat bo'yicha shifoxona mas'ullariga telefon orqali ma'lumotlari berilib ogohlantirildi, **og'zaki murojaatlar ijobiy hal qilindi**.

Respublika ixtisoslashtirilgan **xirurgiya va kardiologiya** ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan bemorlardan Jamg'arma manziliga **yoza murojaatlar kelib tushdi**. Ushbu murojaatlar Jamg'arma mas'ul xodimlari tomonidan o'rganish jarayonida.

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi shifokor **reimbursatsiya tizimi bo'yicha** o'z e'tirozlari bilan og'zaki murojaat qildi. Ushbu murojaat viloyat bo'linma mas'ul xodimiga holat yuzasidan telefon orqali ma'lumot berildi, **og'zaki murojaat ijobiy hal qilindi**.

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi
Matbuot xizmati.**